

RAQS – SAN'ATNING GULTOJI

Valijonova Sug'diyona

O'z DSMIFMF Xoreografiya jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar; Laylo Fazliyeva

O'z DSMI FMF “Xoreografiya” o'qituvchisi

Anatatsiya: bu maqolada raqs va raqsning o'rne, raqslarni tashkillash, raqs tashkiliy jarayoni haqida juda mashaqqatli mehnat, sa'y harakat, ijodiy izlanishlar hamda mazmunli nazariy bilimlar jamlangan.

Kalit so'zlar: *raqs, sahna, marosim, raqs ansambli, mehnat, ijodiy izlanish, musiqa, o'lchov, xoreografiya, ritm*

Ritmik xatti-harakat.

Musiqa va harakat ritmik mashg'ulotlarning asosiy vositasini tashkil etadi. Turli yo'nalishlardagi mavzulami ritmik harakatlarda aks ettirish - bu harakatning asosiy uslubini hamda me'yor tuyg'usini rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi yagona yo'lidir. Xonandalik mahoratini oshirishda plastika quyidagi vazifalarni bajaradi:

- musiqa bilan yashash san'atini o'rgatadi;
- musiqa bilan o'zaro ichki hissiyotlari orqali suhbatlashish va ritmni sezishni, musiqaga mos harakatlanishni rivojlantiradi;
- raqqosada muskullarining erkin harakatlanishini ta'minlaydi, nozik va nafis harakatlar orqali ijodiy mahoratning rivojlanishini ta'minlaydi;
- musiqiy parchalarning tabiatini, jo'shqinligi va ularga mos harakatlar topa olish san'atini kuchaytiradi;
- raqqosaning sahnaviy diqqatini rivojlantiradi, sahnaviy hamrohi bilan ijodiy hamkorlikni yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi;
- nafaqat o'z harakatlarida, balki sahnadoshlar bilan bo'layotgan umumiy harakatlarni bir xillikda bajarish, ya'ni sinxron harakatga erishadi.

Raqqosaning barcha sahnaviy harakatlari ritmga mos holatda boiishi kerak. U sahnada obraz yaratish jarayonida qo'shiq ham

ijro etishi kerak. Undan asosiy e'tiborni harakatlarning me'yoriga, ya'ni harakat unsurlarini mavjud makon va zamonda taqsimlanishiga, mushaklar taranglashuvini boshqarishiga qaratish barobarida, harakatlar ijrosining texnikasini ham unutmasligi talab qilinadi. Raqqosa ritmga mos harakatlanishining yana bir xarakterli xususiyati shundaki, harakatning katta qismi ba'zan jamoa bilan bajariladi. Guruhlar va alohida shaxslar



o‘rtasida musiqiy parcha qismlari va frazalarini bo‘lib berish, o‘sha guruhleri, oldindan belgilangan tartibda, sahna bo‘ylab harakatlantirish - bu ritmga oid darslarda tez-tez qo‘llaniladigan ish uslubidir. Belgilangan muddatdan ilgari umumiy harakatga qo‘shilish, sahnada noto‘g‘ri harakatlanish, ishtirokchining qaysi biri bo‘lmasin, oldindan qabul etilgan harakat rejasini bilmasligi umumiy vazifani buzadi, uni yakunlashga imkon qoldirmaydi. Bu esa barchadan xushyor turishni, saf tortish chiziqlari qanday bo‘lsa, guruh yoki alohida shaxslar taqsimoti va harakatlanishi ham shu chiziqlar bo‘yicha aniq o‘z o‘rnida bo‘lishini taqozo etadi, ya‘ni boshqacha qilib aytganda, san‘atkorda sahnada va jamoada o‘z o‘rnini bilish layoqatini shakllantiradi. Ular ishtirok etayotgan shaxslar va ulaming oldida turgan vazifalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani belgilaydi. Qo‘shiq va raqsda ro‘y beradigan voqealani batafsil tahlili faol harakatlarga olib kelishi kerak. O‘qituvchi va talaba, raqqosa va baletmestrning fikri yurish-turishlarda, ifodali jismoniy harakatlar, harakat va nutqning aniq topilgan temp-ritmlarida amalga oshadi. Bunda harakat temp-ritmi raqqosa, pedagog va talabalar oldiga qo‘ygan asosiy maqsadga bo‘ysundiriladi. Ishning tabiiy va qonuniy jarayoni mana shunda. Ammo talabalarda ijodiy izlanish, tafakkur, faol o‘rin egallashga qobiliyatini rivojlantirishga intilib harakatdan temp-ritmga emas, temp-ritmdan harakatga qarab yurilgani ma‘qul. Talabalarga qarsak bilan turli temp-ritmlar taklif etiladi. Talaba vazifani tushunganligiga ishonch hosil qilingach, berilgan temp-ritmdagi u yoki bu harakatni o‘ylab ko‘rish tavsiya qilinadi. Eng avvalo o‘qituvchi bu temp-ritm bilan harakatni ifodalash mumkinligini tekshirib ko‘rishi kerak. Raqs fani ixtisoslik yoki umumkasbiy fan hisoblanib, talabalar nazariy bilimlar olishiga va amaliy bilim va ko‘nikmalar olishiga yaqindan yordam beradi.

Xalq-sahna raqs asosiy ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan o‘ziga xalq raqslarni o‘rganishda nazarda tutiladi. Ushbu fanning asosiy vazifalari va maqsadi harakatlar ko‘nikmasini egallash va ijro maxoratini takomillashtirishdan iboratdir. “Xalq raqsi” fani XIX-asr oxirida Petrburg imperatorining xoreografiya bilim yurtida vujudga kelgan. Uning paydo bo‘lishi balet spektakillarida ispancha, vengercha, polyakcha, va boshqa xalq raqslarining ijro etilishi bilan bog‘liqdir.

Raqs fani o‘tilish jarayonida o‘quvchilarda koordinatsiya, jamoviylik hissi, sahna maydonchasini taqsimlay bilish kabilarni o‘quvchiga tushuntirib unga singdirib boorish talab etiladi. Ijro madaniyatining mohiyati raqqosning bilimidan iborat bo‘lib u turli harakatlar va xarakterini jismoniy holati soz bo‘lishi zarur va muhimdir. Raqqos yoki raqqosaning tanasi yaxshi sozlangan



soz kabi boshqarishida oson, muloyim nafis bo'lishi har qanday vazifani bajara oladigan uyg'un mustahkam kuchga ega bo'lishi imkon boricha lozim hisoblanadi.

Bunday maqsadga erishishning yagona usuli klassik raqs ta'limining tizimlari yordamida amalga oshiriladi. Doimiy mashqlardan maqsad raqqosa tanasining turli xalqlar va sahnaviy raqslarini ijro eta olishini tayyorlashdan iborat bo'ladi.

Xalq sahna raqsi ham davr bilan hamnafas tarzda jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib rivojlanib bormoqda. Mavjud xoreografik jamoalar yangilanadi. Professional va havaskor, o'smirlar va bolalar uchun yangi jamoalar yuzaga keladi. Bugungi kunda xalq raqsi san'at va madaniyat institutlarida, xoreografiya kollejlari, san'at kollejlari, ko'plab studiyalarda, shuningdek hozirgi kunlarda keng tarqalgan san'at maktablarida o'rgatilmoqda. O'quvchilarga keng qamrovda saviyali o'qtuvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalar berilmoqda.

Shuni xulosa qilib aytishim keakki, xalq raqsi o'zlikni va milliylikni o'zida mujassam etib turadi. Raqs san'ati insonni ulug'laydi. Ushbu san'at turi san'atlar ichida eng nozik va murakkab san'at turi bo'lib. U o'zida nafislikni jozibani va nafosatni yaqqol aks ettirib turadi. Insonning ichki kechinmalari har bir his tuyg'ulari, raqs harakatlari orqali namoyon etib turadi.

Raqs harakatlari – hissiyotlarning tashqi ko'rinishidir, deb ham bejizga mulohaza etilmaydi.

Raqs san'ati betakror ifoda vositalari orqali go'zallikni shakillantiradi, raqqosalarning qayg'u va quvonchini o'zida ifodalab beradi. Chunki u insonlarda (raqos, raqqosalarda) Xattoki harakatdagi kichik bir o'zgarishi ham kayfiyatini o'zgartirib yuboradi. Raqs fani odamlarga zaruriyati va foydasi shundan iboratki, raqsda ularning mehnati, o'y fikri, fikri, fantazyasi, his-tuyg'ulari, malaka va bilimlarini uyg'unlashtirib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lopuxov F. Xoreograficheskiye otkrovennosti. M. 1972.
2. Smirnov I.V. Rabota baletmeystera nad xoreograficheskim proizvedeniye. Uchebnoye posobiye. M. 1979.
3. Tursunova gulsenim “Raqs” 2021-yil 5-9-11 betlar.
4. A.A Magdiyeva “Xalq sahna raqsini o'rganish uslubiyoti”

